



## INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "VAQT" TUSHUNCHASINING QIYOSIY-LINGVOMADANIY TAHLILI

**Muallif: Soataliyeva Bilola Jamshidovna**

*Yo'nalish: Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*O'quv yurti: Angren Universiteti, Pedagogika va tillar fakulteti*

**Ilmiy rahbar: Raxmatullayeva D. A.**

*Email: bilolasoataliyeva884@gmail.com*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar misolida «vaqt» konseptining lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda vaqtning qaytmasligi va qadr-qimmat ikki xil madaniyat prizmasi orqali tahlil qilingan.

**Kalit So'zlar:** vaqt konsepti, paremiologiya, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil.

**Аннотация** В данной статье исследуются лингвокультурологические особенности концепта «время» на примере пословиц английского и узбекского языков. Проводится сравнительный анализ восприятия времени как культурной ценности в обеих традициях.

**Ключевые Слова:** концепт времени, паремиология, лингвокультурология, сравнительный анализ.

**Abstract** This article explores the linguacultural characteristics of the concept of «time» using English and Uzbek proverbs as examples. The study provides a comparative analysis of how time is perceived and valued across these two different cultures.

**Keywords:** concept of time, paremiology, linguacultural studies, comparative analysis.

### KIRISH

Hozirgi zamon tilshunosligida tillarni madaniyat bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish, ya'ni lingvomadaniy yondashuv ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Har bir xalqning o'ziga xos milliy qadriyatlari, dunyoqarashi va hayotiy falsafasi uning maqollarida o'z ifodasini topadi. Maqollar xalq donishmandligining eng ixcham va mazmunli ko'rinishi bo'lib, ularda milliy mentalitet yaqqol namoyon bo'ladi.

«Vaqt» - barcha madaniyatlarda mavjud bo'lgan universal tushuncha bo'lsa-da, har bir xalq uning qadriga va mazmuniga turlicha yondashadi. Masalan, ingliz madaniyatida vaqt ko'proq aniqlik va moddiy resurs sifatida ko'rilsa, o'zbek madaniyatida u ma'naviy g'animatlik va baraka tushunchalari bilan bog'lanadi. Ushbu maqolaning dolzarbligi ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish orqali tillararo tafovutlarni va madaniy xususiyatlarni ochib berish bilan



izohlanadi. Tadqiqotning maqsadi - ikki xil madaniyat vakillarining vaqtga bo'lgan munosabatini paremiologik birliklar orqali ko'rsatib berishdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI** Ushbu mavzu bo'yicha ko'plab tilshunos olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, N.Karamatova va H.Karamatovlar o'zlarining inglizcha-o'zbekcha maqollar lug'atida vaqt tushunchasining leksik ma'nolarini tahlil qilishgan. Shuningdek, xorijiy tilshunoslardan Jennifer Spik (Jennifer Speake) ingliz paremiologiyasida vaqt tushunchasining tarixiy shakllanishini o'rgangan. Ushbu maqola esa aynan lingvomadaniy jihatdan qiyosiy tahlilga e'tibor qaratishi bilan ajralib turadi.

**ASOSIY QISM VA NATIJALAR** Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik birliklar tahlil qilinganda, «vaqt» konseptining bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari namoyon bo'ldi. Maqollarni mazmunan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Vaqtning to'xtovsizligi va qaytmasligi. Har ikki tilda ham vaqtning tabiat hodisalariga (suv, oqim) o'xshatish holatlari ko'p uchraydi. Masalan, ingliz tilidagi "Time and tide wait for no man" (Vaqt va dengiz toshqini hech kimni kutmaydi) maqoli bilan o'zbek tilidagi "Vaqt - oqar daryo" maqoli o'zaro hamohangdir. Bu yerda daryo va dengiz toshqini inson irodasiga bo'ysunmaydigan, to'xtatib bo'lmas kuch sifatida vaqtning g'animatligini ifodalaydi.

2. Vaqtning qiymati va ijtimoiy ahamiyati. Ingliz madaniyati pragmatik (amaliy) xarakterga ega bo'lgani uchun vaqt ko'pincha moddiy boylik bilan o'lchanadi. Buni mashhur "Time is money" (Vaqt - bu pul) maqolida yaqqol ko'rish mumkin. O'zbek madaniyatida esa vaqt pul bilan emas, balki baxt, baraka va hayotiy imkoniyat bilan o'lchanadi. Masalan: "Vaqtning ketdi — baxting ketdi". Bu maqol orqali vaqtni boy berish insonning hayotiy muvaffaqiyati va baxtiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

3. Ish samaradorligi va vaqtdan unumli foydalanish. Inglizlardagi "Procrastination is the thief of time" (Vaqtni boy berish - vaqt o'g'risidir) maqoli ishni ortga surishning zararli ekanligini ko'rsatsa, o'zbek xalq maqollarida bu g'oya ko'proq mehnatsevarlik prizmasidan yoritiladi: "Bugungi ishni ertaga qo'yma". Har ikki tilda ham vaqtdan unumli foydalanish muvaffaqiyat garovi ekanligi uqtiriladi.

4. Vaqt va insoniy munosabatlar. Vaqtning insonlararo munosabatlardagi o'рни ham maqollarda keng yoritilgan. Masalan, ingliz tilidagi "There is a time for everything" (Hamma narsaning o'z vaqti bor) maqoli har bir ishni o'z vaqtida qilish lozimligini uqtiradi. O'zbek xalqida ham bu g'oya "Har narsaning vaqti bor, vaqtning baxti bor" maqoli orqali ifodalanadi. Bu o'xshashlik har ikki xalqning ham hayotiy tajribalarida vaqtni to'g'ri taqsimlash muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.

**TAHLIL VA MUNOZARA** "O'tkazilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek xalqlarining vaqt haqidagi tasavvurlari ularning ijtimoiy turmush tarzi bilan



chambarchas bog'liq. Ingliz tilida vaqtning "yo'qotilishi" (waste of time) yoki "tejalishi" (save time) iqtisodiy tushunchalar bilan ifodalansa, o'zbek tilida vaqt ko'proq inson umrining mazmuni va ota-onalar duosi, baraka kabi tushunchalar orqali talqin etiladi. Bu esa har bir tilning o'ziga xos milliy-madaniy kodini namoyon etadi."

XULOSA Xulosa qilib aytganda, «vaqt» konsepti har ikki xalq madaniyati va dunyoqarashida eng yuksak qadriyatlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, vaqtning qaytmasligi va uni g'animat bilish g'oyasi har ikki tilda ham umuminsoniy xarakterga ega. Biroq, inglizlarda vaqtga ko'proq moddiy resurs (iqtisodiy yondashuv) sifatida qaralsa, o'zbeklarda u ma'naviy boylik va hayotiy imkoniyat sifatida talqin etiladi. Maqollarni bunday qiyosiy o'rganish tillararo muloqotda anglashilmovchiliklarning oldini oladi va madaniyatlararo tushunishni mustahkamlaydi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Berdiyrov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984.
2. Karamatova N.M., Karamatov H.S. Maqol va matallar (Ingliz-o'zbek lug'ati) / Proverbs and sayings (English-Uzbek dictionary). – Toshkent: Mehnat, 2000.
3. Speake, Jennifer. The Oxford Dictionary of Proverbs. – 6th Edition. – Oxford University Press, 2015.